



**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA NUTQIY
KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA TASVIRIY
SAN'ATNING AHAMIYATI**

Masharipova Sevinch

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika
institutining boshlang'ich ta'lim fakulteti 3-D kurs talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14873946>

Annotatsiya. Bu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishda tasviriyl san'at namunalaridan foydalanishning maqsadi hamda metodik tavsiyalar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Kompetensiya, tasviriyl san'at, nutq, texnologiya.

Har qaysi mamlakatda olib boriladigan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar negizida, avvalambor, ta'lim tizimi va turlarini yanada takomillashtirish eng muhim va dolzarb masalalardan biri bo'lib qolaveradi. Shu nuqtai nazardan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning: "Agar mendan sizni nima qiynaydi, deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'limi va tarbiyasi deb javob beraman", deya aytgan e'tiroflari, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan har bir islohot zamirida o'sib kelayotgan yosh avlodning kelajagi, mukammal bilim sohiblari bo'lib kamol topishlari va yorqin istiqboli masalasi yotganligini ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinflarda tasviriyl san'atni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, avvalo bu sinflardagi ta'lim mazmuni kichik maktab yoshidagi bolalarning yoshlik xususiyatlari va psixologiyasi, qiziqishi, ulardagi mavjud bilim va qobiliyat hamda layoqatlariga qarab belgilanadi. Ma'lumki, bolalarda tasviriyl faoliyatga, xususan rasm chizishga ishtiyoq nihoyatda erta boshlanadi. Uni 2-3 yoshlardan boshlanishi tarixdan ma'lum. Shunisi xarakterliki, bolalar o'qish va yozishdan ko'ra rasm chizishni juda yoqtiradilar. Biroq ular chizadigan rasmlarning davomiyligi juda qisqa bo'ladi, 1-2 minut, ko'pi bilan 4-5 minutda har qanday rasmni tugallab qo'yadilar. Bolalar tomonidan chizilgan rasmlar savodli bo'lmasa-da, biroq mazmunan biron-bir ko'rinishni, voqeani yoki buyumni o'z iqtidorlariga yarasha, ularning xarakterli belgilarini tasvirlay oladilar.

O'qituvchilar uchun namoyish etiladigan narsalar va tasvirlar avvalo mashg'ulot mavzusi bilan bog'liq holda bo'lib, ular o'z tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari bilan sodda, tushunarli, bolalarda his-hayajon uyg'otadigan bo'lishligi maqsadga muvofiqdir. Eng muhimi, bunday materiallar o'quvchilarni o'ylashga majbur etadigan, bolalarni yangi tushunchalar bilan boyitadigan bo'lishligi



muhim. Namoyish etiladigan narsalar, ularning tasvirlari haqidagi ma'lumotlarni bolalarga og'zaki yetkazishda ularning tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tahlil bevosita narsalarning tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari, ularning mohiyati haqida savol-javob tarzida o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Ya'ni o'quvchilarga chizgan narsalari yoki rasmda ko'rayotgan predmet yuzasidan savollar berish yoki ularni ta'riflab berishi orqali ham og'zaki nutqini o'stirishga erisha olamiz.

Nutqiy kompetensiya til ta'limining quyidagi 4 komponentini rivojlantirishni nazarda tutadi:

1) tinglab tushunish (eshitilgan va eshittirilgan nutqni, tinglangan matndagi asosiy axborotni, dolzarb mavzulardagi radio va teledasturlarni tushunish);

2) gapirish (monologik, dialogik og'zaki nutq turlarida o'z shaxsiy qarashlari va fikrlarini bildirish, mavzu doirasida taqdimot qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish);

3) o'qish: mavzuga oid materiallarni, adabiy-badiiy matnlarni, ommabop materiallarni (gazeta, hikoya, shaxsiy va elektron xatlarni) o'qish;

4) yozish (diktant, bayon, insho yoza olish, ijodiy matnlar tuza olish, rasmiy ish qog'ozlarini yuritishni bilish).

Tasviriy san'at orqali nutqiy kompetensiyaning aynan gapirish komponentini rivojlantirish mumkin. Rasmlar asosida va o'qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi, nutq jarayonida o'zlashtirgan yangi so'zlarni og'zaki nutqda qo'llay oladi. Buning uchun tasviriy san'at darslarini to'g'ri tashkil qila olish muhim ahamiyatga ega. Darsni tashkil qilishdan asosiy maqsad quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Masalan, a) o'quvchilarga mavzu haqida (umumiy, to'liq, qisman) ma'lumot berish;

b) berilgan bilimlar asosida o'quvchilarda badiiy estetik dunyoqarashni shakllantirish;

d) o'quvchilarda turli ko'nikma va malakalami hosil qilish;

e) yoshlarni har tomonlama rivojlantirish, ayniqsa, mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish;

f) o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, ularning estetik hislarini rivojlantirish;

g) yosh avlodni kelgusida kasb tanlashga to'g'ri yo'llash va hokazo.

Darsning tushunarli va mazmunli bo'lishi uchun quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir: og'zaki (bayon qilish, tushuntirish, ma'ruza, suhbat), ko'rgazmali (illyustratsiya, namoyon qilish), amaliy (tajribalar,





mashqlar va h.k.). Mantiqiy (Logik) metodlar: induktiv - aniq faktlardan umumiylikka, deduktiv - umumiy tushunchalardan faktlarga, analitik - faktlar asosida mavzuni chuqur o'rganish kabilarni o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. Toshkent – “Yoshlar nashriyot uyi”, 2019.
2. B.N.Oripov. Tasviriy san’atni o’qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi. Toshkent – “Ilm ziyo nashriyoti”, 2013.
3. D. Xoshimova, G. Ziyodullayeva, M. Rajabova, F. Tolipova va boshqalar. O’quvchilarning nutqiy savodxonligini oshirishning samarali usullari. Toshkent – 2017.
4. N.Y.Yusupova, M.U.Hamidova, N.Q.Abidova, M.Y.Pardayeva. Tasviriy san’at va qo’l mehnatiga o’qitish maxsus metodikasi. Toshkent – “Fan va texnologiya”, 2018.
5. S.F.Abdilasilov. Tasviriy san’at o’qitish metodikasi. Toshkent – “Fan va texnologiya”, 2012.

